

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2026, № 4 (16)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Иляс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхуджаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймаҳаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобокулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлевич
Сиёсий фанлари доктори (DSc), доцент
Бизнес ва тадбиркорлик Олий мактаби

Гаффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети
Сиддиков Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Бахранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиазарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймуҳамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Америка технологиялар университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1	Akbarov Ravshan Xalimovich JADIDLAR MA'RIFATCHILIK FAOLIYATINI YOYISHDA "TARJIMON" GAZETASINING O'RNI	4
2	Ахрарова Амалия Искандеровна ЭВОЛЮЦИЯ ФОРМАТОВ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ И ЯПОНИИ: СТАНОВЛЕНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РЕГИОНАЛЬНОГО ДИАЛОГА	14
3	Бахранов Шерзад Таштурсунович ЎЗБЕКИСТОН ССР САБЗАВОТ-ПОЛИЗ ЭКИНЛАРИ ВА КАРТОШКА ИЛМИЙ – ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ ФАОЛИЯТИ ТАРИХИДАН	27
4	Israilov Nodir Raximjonovich XVI ASR FRANSUZ SHARQSHUNOSLARI ASARLARIDA AMIR TEMUR HAYOTI VA DAVLATCHILIK FAOLIYATINING TADQIQ ETILISHI	39
5	Kandaxarov Anvarjon Xasanovich BUXORO XONLIGIDA JO'YBOR XOJALARINING IQTISODIY QUDRATI: SHAKLLANISH OMILLARI VA IJTIMOY-SIYOSIY TA'SIRI	45
6	Mamajonov Soyibjon Xalilovich AMIR TEMUR VA TO'XTAMISHXON MUNOSABATLARI YOZEF FON XAMMER-PURGSHTAL TALQINIDA	52
7	Mahkamova Zulxumor Murodjon qizi TURKISTON ASSRNING SOLIQ SIYOSATI TARIXIDA KADRLAR TARKIBINING AKS ETISHI	58
8	Mirzayeva Zaxra Xayritdinovna KO'RGAZMA ORTIDAGI IMPERIYA: KAUFMAN DAVRIDA TURKISTONDA MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATINING NAMOYON BO'LISHI	64
9	Normurodov Dilmurod Raxmatullayevich TO'SKENT VOHASINING QADIMGI VA RIVOJLANGAN ORTA ASRLAR DAVRI TARIXI VA MADANIYATIGA OID YOZMA MANBALAR XUSUSIDA	71
10	Nuridinov Turdali Qambarovich., Haydaraliyev Xushnud Muso-zoda QO'QON XONLIGIDA AHOLINING OMMAVIY ISHLARGA JALB ETILISHI TARIXSHUNOSLIGI	85
11	Nuridinov Turdali Qambarovich., Haydaraliyev Xushnud Muso-zoda QO'QON XONLIGI-XITOIY O'RTASIDAGI DIPLOMATIK ALOQALAR XORIJIY TADQIQOTCHILAR TALQINIDA	90
12	Raxmankulova Matluba Bayxurazovna XX ASR BOSHLARIDA G'ARBDA TEMURIYLAR KITOBAT SAN'ATINING O'RGANILISHI	96
13	Razzokova Nigora Olimjon kizi INCLUSIVE EDUCATION PRACTICES AND THEIR IMPACT ON LINGUISTICALLY DIVERSE LEARNERS IN MULTICULTURAL CLASSROOMS	107
14	Sadirov Aziz Sirojiddinovich MUSTAQILLIK ARAFASIDA QASHQADARYO VILOYATIDA YO'L TRANSPORT INFRAUZILMASINING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH JARAYONLARI	113
15	Сиддиков Равшан Бердимуратович ЎЗБЕКИСТОН ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИНГ ХАЛҚАРОЛАШУВИ ТАРИХИГА ДОИР (1997-2016)	120

Mirzayeva Z. X.

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

akademik litseyi o'qituvchisi

szrim1985@gmail.com

KO'RGAZMA ORTIDAGI IMPERIYA: KAUFMAN DAVRIDA TURKISTONDA MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATINING NAMOYON BO'LISHI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada K.P. fon Kaufman boshqaruvi davrida Turkiston general-gubernatorligida tashkil etilgan ko'rgazma va yarmarkalar faoliyati Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati kontekstida tahlil qilinadi. Tadqiqotda Toshkent yarmarkasini ma'muriy yo'l bilan tashkil etishga qaratilgan urinishlar hamda 1872-yilgi Moskva Politexnika ko'rgazmasida Turkiston bo'limining tashkil etilishi tarixiy manbalar asosida yoritiladi. Shuningdek, maqolada Kaufman ma'muriyati tomonidan yaratilgan ilmiy va ko'rgazma infratuzilmasi keyinchalik Turkistonda ko'rgazma faoliyatining shakllanishiga zamin yaratgani ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: Turkiston general-gubernatorligi, K.P. fon Kaufman, ko'rgazmalar, yarmarkalar, Moskva Politexnika ko'rgazmasi, Toshkent yarmarkasi, Rossiya imperiyasi, mustamlakachilik siyosati, iqtisodiy o'zlashtirish, imperiyachilik mafkurasi.

KIRISH

XIX asrning ikkinchi yarmida dunyoning yetakchi imperiyalari uchun ko'rgazma va yarmarkalar nafaqat iqtisodiy taraqqiyot yutuqlarini namoyish etish, balki bosib olingan hududlarning tabiiy boyliklari, xo'jalik salohiyati va madaniy xususiyatlarini imperiya manfaatlari nuqtai nazaridan talqin qilishga xizmat qiluvchi muhim siyosiy vositaga aylandi. Rossiya imperiyasi ham Turkistonni o'z mustamlakachilik siyosatining muhim obyekti sifatida aynan ana shunday namoyish maydonlari orqali imperiya jamoatchiligiga taqdim etdi. Kaufman davrida tashkil etilgan ko'rgazma va yarmarkalar o'lkani iqtisodiy jihatdan o'zlashtirish, uning resurslarini tizimli ravishda o'rganish va metropoliya bozoriga yo'naltirish bilan birga, Turkiston haqidagi imperiyaviy tasavvurni shakllantirish vazifasini ham bajardi. Binobarin, Kaufman davridagi ko'rgazma va yarmarkalar tarixini o'rganish ularning faqat iqtisodiy hayotdagi o'rnigina aniqlab qolmaydi, balki imperiyaning Turkiston o'lkasini o'zlashtirish, uning resurslarini namoyish etish va mustamlakachilik siyosatini asoslashga xizmat qilgan murakkab siyosiy mexanizm sifatidagi mohiyatini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Kaufman ma'muriyatining turli ko'rgazmalarni tashkil etishga oid siyosati metropoliyaga yo'naltirilgan loyihalar bilan cheklanmay, o'lkaning o'zida ham

keng axborot-ilmiy infratuzilmani vujudga keltirdi. 1870-yilda general-gubernator tashabbusi bilan Turkistonda ilk gazetalar rus tilidagi “Туркестанские ведомости” va mahalliy tilda “Turkiston viloyatining gazetasi” nashr etila boshlandi. Uning dastlabki sonlaridan boshlab rasmiy xabarlardan tashqari, oʻlka tarixi, tabiati va madaniyatiga oid koʻplab ilmiy va oʻlkashunoslik materiallari ham eʼlon qilib borildi [1]. Bundan tashqari, 1868-yil 22-yanvarda Turkiston statistika qoʻmitasi tashkil etilib, u orqali oʻlka aholisi, xoʻjaligi va tabiiy resurslari haqidagi maʼlumotlarni muntazam toʻplab borish yoʻlga qoʻyildi.

1876-yilda Toshkentda Markaziy Osiyodagi birinchi muzeyning ochilishi Kaufman maʼmuriyati tomonidan shakllantirilgan namoyish siyosatining mantiqiy davomi boʻldi. Agar 1872-yilgi Moskva Politehnika koʻrgazmasida Turkiston imperiya markazida namoyish etilgan boʻlsa, Toshkent muzeyi oʻlkaning tabiiy, iqtisodiy va madaniy salohiyatini mahalliy sharoitda tizimli ravishda namoyish etishga xizmat qiluvchi muassasa sifatida maydonga chiqdi.

A.I. Dobrosmislovning maʼlumotlariga koʻra, general-gubernatorning zimmasidagi eng muhim vazifalardan biri Turkistonda, xususan Toshkentda savdoni rivojlantirish edi. 1868-yil 16-mayda general-gubernatorning topshirigʻiga binoan shahar boshligʻi tomonidan 19-maydan boshlab eski shaharning mahalliy qismidagi bozorni yopish va uning oʻrniga shaharning yangi, yevropacha qismida ikkita yarmarka ochish toʻgʻrisida farmoyish berildi [2]. 1869-yilda polkovnik A.I. Gluxovskiy raisligida Yarmarka qoʻmitasi tashkil etildi. Mazkur chora Kaufman maʼmuriyatining savdo faoliyatini anʼanaviy bozor tizimidan maʼmuriy jihatdan boshqariladigan yarmarka tizimiga yoʻnaltirishga qaratilgan dastlabki urinishlaridan biri boʻldi.

Yangi yarmarka toʻliq davlat mablagʻlari hisobidan moliyalashtirilib, uning yillik xarajati 14 500 rublni tashkil etgan. 1870–1879-yillar mobaynida yarmarkalar uchun davlat gʻaznasidan jami 509 793 rubl sarflangan boʻlib, shundan 134 558 rubl yarmarka maʼmuriyatini saqlashga, 33 677 rubl yarmarka uchun yer sotib olishga, 219 673 rubl yarmarka binolarini qurishga, 62 450 rubl shosse yoʻllari va koʻpriklar qurishga, 25 694 rubl binolar hamda shosselarni taʼmirlashga, 33 738 rubl esa turli boshqa ehtiyojlarga yoʻnaltirildi [2]. Aslida, 1870-yilda birja binosi uchun qurilgan inshoot hech qachon oʻzining bevosita vazifasi boʻyicha ishlatilmadi. U uzoq vaqt shahar teatri sifatida xizmat qildi, 1908-yilda esa vabo bilan kasallanganlar joylashtiriladigan binoga aylantirildi, keyinchalik esa shahar kasalxonasining yuqumli kasalliklar boʻlimi sifatida ham foydalanildi. Bu holat barpo etilgan infratuzilmani aniq maʼmuriy rejadan kelib chiqqanligini koʻrsatadi.

Maʼmuriyat savdogarlarni jalb etish uchun soliq imtiyozlaridan ham foydalandi. Fon Kaufman yarmarka savdosini rivojlantirish maqsadida mahalliy va xorijiy savdogarlarni yarmarka davrida zakot soligʻidan ozod qildi va natijada gʻazna faqat 1871–1872-yillarda 100 ming rubl daromaddan mahrum boʻldi. Dastlabki loyihaga koʻra yiliga ikki marta – bahorgi va kuzgi yarmarkalar oʻtkazilishi moʻljallangan edi, biroq birinchi bahorgi yarmarkaga hech kim kelmagani sababli faqat kuzgi yarmarka bilan cheklanishga toʻgʻri keldi. Birinchi kuzgi yarmarka yakunidayoq qoʻmita uning ham ommalashmasligiga amin boʻldi

va 1870-yil noyabrida o'lkada boshlig'idan eski shahar savdogarlarini o'z tovarlarini yarmarkaga majburiy ravishda olib kelishga majbur etish uchun ruxsat so'radi. Ammo bu chora ham kutilgan natijani bermadi va yarmarka rivojlanmadi [2].

Yarmarkaning amaldagi ahvoli bilan rasmiy hisobotlar o'rtasida jiddiy tafovut mavjud edi. Qo'mita yuqori idoralarga yarmarkadagi savdo aylanmasi millionlab rubllarni tashkil etgani, tovarlarning kirib kelishi va olib chiqilishi nihoyatda katta bo'lgani haqida hisobotlar taqdim etib bordi; ayrim yillarda yarmarkaga keltirilgan tovarlar qiymati 10 million rubldan ortiq deb ko'rsatilgan. Holbuki, yarmarka binolari va savdo joylarini ijaraga berishdan g'aznaga tushgan daromad dastlabki to'rt yil davomida o'rtacha yiliga atigi 2258 rublni, 1873-yilda esa 1717 rublni tashkil etgan. Yarmarkaning o'tkazilish muddati ham har yili o'zgartirib turilgan: 1870-yilda u 15-oktabrdan 12-noyabrgacha, 1871-yilda 16-oktabrdan 1-noyabrgacha, 1872-yilda esa 1-oktabrdan 1-noyabrgacha davom etgan [2]. Bu raqamlar hisobotlardagi millionlik aylanma bilan real moliyaviy natija o'rtasidagi nomutanosiblikni yaqqol namoyon etadi.

1875-yil 1-yanvardan boshlab zakot solig'i bekor qilinib, uning o'rniga savdo guvohnomalari uchun yig'im joriy etildi. Mahalliy savdogarlarning yarmarkaga majburan jalb etilayotganidan norozi bo'lishidan cho'chigan Yarmarka qo'mitasi o'lkada boshlig'i oldiga yarmarka ishtirokchilarini ushbu yangi soliqdan ozod etish to'g'risida iltimosnoma bilan chiqdi. General-gubernator bunday chorani mustaqil ravishda qo'llashga jur'at etmay, masala yuzasidan G'azna palatasi bilan yozishmalar olib bordi. G'azna palatasi javobida mazkur soliqni bekor qilish qonunga zid ekanini ta'kidladi hamda savdogarlarni yarmarkaga majburan jalb etish masalasida o'z nuqtayi nazarini quyidagicha bayon qildi: yarmarka va bozorlarga borishni istamagan shaxslarni bunga majburlab bo'lmaydi, chunki Rossiyada savdo va sanoat erkin tabaqalarga mansub barcha shaxslar uchun erkin hisoblanadi, krepostnoy mehnat esa 1861-yil 19-fevraldagi Manifest bilan bekor qilingan [2]. Ushbu yozishmalar natijasida K.P. fon Kaufman 1876-yil 9-avgustda mahalliy savdogarlarning yangi shahardagi bozor va yarmarkalarda majburiy ishtirok etishi haqidagi tartibni bekor qildi.

Kaufman ma'muriyatining ko'rgazma sohasidagi eng yirik amaliy tashabbusi 1872-yilda Moskvada o'tkazilgan Politehnika ko'rgazmasida (Политехническая выставка) Turkiston bo'limining tashkil etilishi bo'ldi. Ko'rgazma Moskvada 1872-yil 30-may (11-iyun) dan 1 (13)-sentyabrgacha, Pyotr I tavalludining 200 yilligiga bag'ishlab o'tkazildi. Bunda asosiy e'tibor imperiyaning sanoat, qishloq xo'jaligi, harbiy hamda ilmiy-texnikaviy yutuqlarini namoyish etishga qaratildi [3]. Ko'rgazma tabiatshunoslik, antropologiya va etnografiyani sevuvchilar jamiyati tashabbusi bilan uyushtirilib, uning tarkibida yigirmadan ortiq bo'lim faoliyat ko'rsatdi. Turkiston bo'limi ana shu bo'limlar orasida alohida ajralib turdi.

Tadbir Kreml yaqinidagi Aleksandr bog'i, Kreml qirg'og'i va boshqa hududlarda barpo etilgan saksondan ortiq vaqtinchalik pavilonlarni qamrab oldi. Unda 12 mingdan ortiq ishtirokchi, jumladan Avstriya-Vengriya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Germaniya va boshqa davlatlardan qariyb ikki ming vakil qatnashdi. Ko'rgazma faoliyatini ta'minlash uchun maxsus bosmaxona tashkil etildi, kundalik

axborot gazetasi nashr qilindi hamda pavilonlarni yoritish maqsadida alohida gaz zavodi qurildi. Tadbir Romanovlar sulolasi vakillari homiyligida o'tkazildi.

Muhim jihat shundaki, Turkiston general-gubernatori K.P. fon Kaufman 1871-yil kuzida ko'rgazma qo'mitasining faxriy a'zolaridan biri bo'lishga taklif etildi. Bu unvon ko'rgazmaga moliyaviy yoki ma'muriy ko'mak bergan shaxslarga berilardi. Aynan general-gubernatorning faol qo'llab-quvvatlashi tufayli 1872-yil martda Birinchi Kreml bog'ida Turkiston kolleksiyalari uchun maxsus payvilyon qurilishi boshlandi [4]. Bu holat o'lka mahsulotlarining metropoliya namoyishiga chiqarilishi general-gubernatorlik ma'muriyatining ongli va rejali siyosati mahsuli bo'lganini yaqqol ko'rsatadi. Turkiston bo'limi ekspozitsiyasining asosini aynan Fedchenko ekspeditsiyalarida to'plangan tabiiy-tarixiy va xo'jalik kolleksiyalari tashkil etdi [4]. Bu esa ilmiy tadqiqot bilan ko'rgazma amaliyoti o'rtasidagi bevosita bog'liqlikni tasdiqlaydi.

Ushbu ko'rgazma katta muvaffaqiyat qozonib, uni 750 ming kishi tomosha qildi. Bu 1870-yilgi Butunrossiya ko'rgazmasiga tashrif buyurganlar sonidan ikki baravar ko'p edi. Imperator Erkin iqtisodiy jamiyatida faoliyat yuritgan tabiatshunos va ipakchilik mutaxassisi V. Iversen tabiiy fanlar va tarix bo'limlari orasida Kavkaz hamda Turkiston bo'limlari tashrif buyuruvchilarda eng katta taassurot qoldirganini qayd etadi [5].

Turkiston bo'limi payvilyoni ko'rgazmaning me'moriy jihatdan eng e'tiborli inshootlaridan biri Sherdor madrasasining 2,5 barobar kichraytirilgan nusxasi bo'ldi. Uning dizayni rassom D. Ivanov chizmalari asosida sharqona uslubda, ochiq-ko'k va qizil ranglarda bezatilgan [6]. Bu o'lkani "ekzotik", "sharqona" va imperiyaning boshqa hududlaridan ajralib turadigan makon sifatida taqdim etish orqali unga nisbatan alohida qiziqish uyg'otish ko'zda tutilgan.

Pavilyonda Turkistonning tabiiy boyliklari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari va hunarmandchilik namunalari keng namoyish etildi. Ekspozitsiyadan gilamlar, milliy matolar, jonli ipak qurtlari bilan birga pillachilik mahsulotlari, Turkiston asalarilari va asal namunalari, shuningdek Qizilqum, gilli cho'l, daryo bo'ylari, madaniy hududlar, tog' va bog' mintaqalariga oid o'simliklardan tuzilgan gerbariyalar o'rin oldi. Bundan tashqari pavilyon yaqinida o'rnatilgan qozoq kigiz uyi (kibitka) va boshqa etnografik buyumlar esa mahalliy aholining turmush tarzini aks ettiruvchi ekspozitsiyaning tarkibiy qismi bo'lib xizmat qilgan.

M.X. Zakirova 1872-yilgi Moskva Politehnika ko'rgazmasidagi Turkiston bo'limini o'lka mahsulotini imperiya namoyishlariga chiqarishning ilk tajribasi sifatida talqin qilib, uni o'lkaga rus kapitali kirib kelishiga turtki bergan muhim omil deb baholaydi [7]. Ya'ni ko'rgazma-namoyish faoliyati boshidanoq o'lkaning iqtisodiy "o'zlashtirilishi" bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Umuman olganda, XIX asr ikkinchi yarmida butunjahon ko'rgazmalari va yarmakalari imperiyalar o'z mustamlakalarini namoyish etish maydoniga aylangan edi. Bu jarayonni P. Grinhalg o'zining ko'rgazmalar tarixiga bag'ishlangan tadqiqotida batafsil ko'rsatib bergan [8]. Rossiyaning Turkistonni namoyish etishi ham ana shu umumjahon miqyosidagi amaliyotning bir qismi edi.

1872-yilgi ko'rgazmaning ahamiyati uning bir martalik tadbir bo'lib qolmaganida yanada yaqqol namoyon bo'ldi. Ko'rgazma yopilgach, uning

eksponatlari Moskvadagi Amaliy bilimlar muzeyi (hozirgi Politexnika muzeyi) va Tarixiy muzeyning asosini tashkil etdi. Turkiston bo'limi muzey tarkibida doimiy bo'lim sifatida saqlanib qoldi va taxminan 1901-yilgacha faoliyat ko'rsatdi [4]. Muzeyning Turkiston bo'limi vaqt o'tishi bilan yangi eksponatlar hisobiga boyib bordi. U 1876-yilda bevosita Kaufman tomonidan taqdim etilgan materiallar, 1879-yilda esa Markaziy Osiyodan keltirilgan yangi ashyolar bilan to'ldirildi.

Turkiston kolleksiyalarining xalqaro ko'rgazmalarga chiqarilishi o'lkaning imperiya doirasidan tashqaridagi e'tiborga ham sazovor bo'lganini ko'rsatadi. 1873-yilda muzey Turkiston bo'limining kolleksiyalari Vena Butunjahon ko'rgazmasida, 1874-yilda esa pillachilik va asalarichilik bo'yicha kolleksiyalar Londonda namoyish etildi [6]. Ayni shu yillarda, 1873-yilda Londonda, 1874-yilda esa Peterburg va Moskvada Vereshchaginining "Turkiston turkumi" ham keng jamoatchilikka taqdim etilgan edi. Bu holat XIX asr oxirida kuchaygan imperiyalararo raqobat sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi. O'lka boyligini xalqaro ko'rgazmalarda namoyish etish orqali Rossiya o'zining mustamlakachilik salohiyatini boshqa Yevropa davlatlariga ko'rsatishga intilgan.

Kaufman davridagi ko'rgazma tashabbuslarining talqini zamonaviy tarixshunoslikda bir qancha yondashuvlar doirasida munozara qilinadi. Sovet davri tarixshunosligida bu tadbirlar asosan o'lkaning imperiya iqtisodiy tizimiga tortilishi nuqtai nazaridan baholangan bo'lsa, g'arb tadqiqotlarida ular o'lka qiyofasining shakllanishi bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Jumladan, S. Gorshenina va S. Abashin tadqiqotlarida ko'tarilgan "Rossiya Turkistoni boshqa mustamlakalarga o'xshash oddiy mustamlaka bo'lganmi yoki o'ziga xos hodisami?" degan savol bu munozaraning markazida turadi [9]. Turkiston misolida ko'rgazma amaliyotining o'ziga xosligi shundaki, u imperiya markazi bilan chekka o'lka o'rtasidagi murakkab munosabatni aks ettirgan. Rossiya imperiyasining hududiy tutashligi, harbiy boshqaruv tartibi va "ichki mustamlaka" xarakteri bu amaliyotga alohida tus bergan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Turkiston general-gubernatorligining dastlabki o'n besh yilligida ko'rgazma faoliyati hali mustaqil tizim sifatida shakllanmagan bo'lsa-da, uning asosiy tashkiliy tamoyillari aynan shu davrda vujudga keldi. 1869-yilda Turkiston mahsulotlarining ilk bor imperiya ko'rgazmasida namoyish etilishi, 1872-yilgi Moskva Politexnika ko'rgazmasida Turkiston bo'limining tashkil etilishi va keyinchalik ushbu materiallarning muzey fondlariga o'tkazilishi Rossiya imperiyasining o'lkani iqtisodiy va ilmiy jihatdan o'zlashtirish siyosatining tarkibiy qismi edi. Natijada Turkistonning tabiiy resurslari, xo'jaligi va aholisi haqidagi ma'lumotlar tizimli ravishda to'plandi, tasniflandi va imperiya manfaatlari nuqtai nazaridan namoyish qilindi. Aynan shu tajriba keyinchalik o'lkaning o'zida tashkil etilgan ko'rgazma va yarmarkalarning shakllanishiga tarixiy asos bo'lib xizmat qildi. Ayni paytda o'lkaning o'zida ma'muriy yo'l bilan tashkil etilgan Toshkent yarmarkasining tugatilishi bu bosqichda namoyish amaliyoti asosan metropoliya maydonlarida kechganini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Русский Туркестан // rusnasledie.info; mytashkent.uz.
2. Добросмыслов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем: Исторический очерк. – Ташкент: Электро-паровая типо-литография О.А. Порцева, 1912.
3. Политехническая выставка 1872 // Большая российская энциклопедия (bigenc.ru).
4. Котомина А. (2024). Тщательное коллекционирование и строгая группировка: история устройства туркестанского отдела в политехническом музее (1872-1900) // Люди и тексты. Исторический альманах (17). – С. 206-207.
5. Иверсен В.Э. Отчет о поездке на Московскую политехническую выставку // Труды Императорского вольного экономического общества. – 1873. – Т. 1. – С. 204–221, 507–525.
6. Политехническая выставка 1872 года // ru.wikipedia.org; rus-istoria.ru.
7. Закирова М.Х. Туркестанские промышленные и сельскохозяйственные выставки как фактор имперской российской политики в Центральной Азии в XIX–XX вв. // Социальные и гуманитарные науки. Отечественная и зарубежная литература. Сер. 9: Востоковедение и африканистика. – 2024. – № 2. – С. 60–82.
8. Greenhalgh, Paul. *Ephemeral Vistas: The Expositions Universelles, Great Exhibitions and World's Fairs, 1851–1939*. — Manchester: Manchester University Press, 1988. — xii + 245 p.
9. Gorshenina S., Abashin S. Le Turkestan russe: une colonie comme les autres? – Paris: Complexe, Collection de l'IFÉAC (Cahiers d'Asie centrale, n° 17/18), 2009. – 550 p.

Мирзаева З. Х.

Преподаватель академического лицея
Ташкентского государственного медицинского университета
szrim1985@gmail.com

ИМПЕРИЯ ЗА ВЫСТАВКОЙ: ПРОЯВЛЕНИЕ КОЛОНИАЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ В ТУРКЕСТАНЕ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ КАУФМАНА

АННОТАЦИЯ

В настоящей статье, в контексте колониальной политики Российской империи исследуется деятельность выставок и ярмарок, организованных в Туркестанском генерал-губернаторстве в период управления К.П. фон Кауфмана. На основе исторических источников анализируются попытки административной организации Ташкентской ярмарки, а также процесс создания Туркестанского отдела на Московской политехнической выставке 1872 года. Кроме того, показано, что научная и выставочная инфраструктура, сформированная администрацией Кауфмана, впоследствии стала основой для

становления и дальнейшего развития выставочной деятельности в Туркестане.

Ключевые слова: Туркестанское генерал-губернаторство, К. П. фон Кауфман, выставки, ярмарки, Московская политехническая выставка, Ташкентская ярмарка, Российская империя, колониальная политика, экономическое освоение, имперская идеология.

Mirzayeva Z. X.

Lecturer at the academic lyceum of
Tashkent state university of medicine
szrim1985@gmail.com

THE EMPIRE BEHIND THE EXHIBITION: COLONIAL POLICY IN TURKESTAN UNDER K. P. VON KAUFMAN

ABSTRACT

This article examines the activities of exhibitions and fairs organized in the Turkestan Governor-Generalship during the administration of K. P. von Kaufman within the broader context of the colonial policy of the Russian Empire. Drawing upon historical sources, it analyzes the administrative efforts to establish the Tashkent Fair and explores the creation of the Turkestan Section at the Moscow Polytechnic Exhibition of 1872. Furthermore, the article demonstrates that the scientific and exhibition infrastructure established under Kaufman's administration laid the foundations for the emergence and subsequent development of exhibition activities in Turkestan.

Keywords: Turkestan Governor-Generalship, K. P. von Kaufman, exhibitions, fairs, Moscow Polytechnic Exhibition, Tashkent Fair, Russian Empire, colonial policy, economic exploitation, imperial ideology.